
TOSHLOQDA YANA BIR MAHALLADAGI 500 DAN ZIYOD XONADONLAR ICHIMLIK SUVI BILAN TA'MINLANMOQDA

Prezidentimizning "Mahallalarda birinchi navbatda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-154-sonli qaroriga ko'ra, "Mehnatobod" MFYda aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida qurilish-ta'mirlash ishlari jadal sur'atlarda olib borilmoqda.

Qarorga ko'ra, MFYdagi Hushnud, Osiyo, Mashal, Tarannum, Mirishkol nomli ko'chalarda jami 10 km.lik ichimlik suv quvuri tortilib, 2 ta suv qudug'ini qazish ishlari bajarilmoqda.

Mazkur qurilish-ta'mirlash ishlar uchun respublika byudjetidan 3 milliard 800 million so'm mablag' ajratildi.

2023-07-31 18:20:09